

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**URMONOVA DILAFRUZ ERKINJONOVNA**

**SO‘X DARYOSI SUV HAVZASI BALIQLARI (ACTINOPTERYGII:  
TELEOSTEI)NING FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation**

**Urmonova Dilafruz Erkinjonovna**

So‘x daryosi suv havzasi baliqlari (Actinopterygii: Teleostei)ning faunasi  
va ekologiyasi ..... 3

**Урмонова Дилафруз Эркинжоновна**

Фауна и экология рыб (Actinopterygii: Teleostei) бассейна реки Сох .... 21

**Urmonova Dilafruz Erkinjonovna**

Fauna and ecology of fishes (Actinopterygii: Teleostei) of the Sokh River  
basin ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**URMONOVA DILAFRUZ ERKINJONOVNA**

**SO‘X DARYOSI SUV HAVZASI BALIQLARI (ACTINOPTERYGII:  
TELEOSTEI)NING FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/B883 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sheraliyev Baxtiyor Maxmutali o‘g‘li**  
biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Boymurodov Xusniddin Toshboltayevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Nazarov Muhammadrasul Sharapovich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Zoologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2021.B.05.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20-avgust kuni soat 09:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. FarDU.Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: fardu\_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№553-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 8-avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil 8-avgustdagi 30-raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Signature]* **I.I. Zokirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, b.f.d., professor

*[Signature]* **M.M. Yunusov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi v.d., b.f.n., dotsent

*[Signature]* **A.K. Xusanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda bugungi kunda turli ekotizimlardagi biologik genofondning barqarorligini ta'minlash, muhofaza qilish hamda ulardan foydalanishning ratsional va ilmiy asoslangan yo'llarini topish biologiya fanlari oldida turgan eng muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. XX asrdan boshlab antropogen omilning biologik turlarga ta'siri misli ko'rilmagan darajada orta boshladi. Qator tadqiqot natijalari insoniyatning Yer yuzida shu vaqtgacha kuzatilgan ommaviy qirilishlarning yangi silsilasiga (Oltinchi ommaviy qirilish) sababchi bo'layotganini qayd etgan. Shunga ko'ra, ayni vaqtda tabiiy ekotizimlar, jumladan, suv havzalaridagi biologik xilma-xillikni aniqlash, ularning barqarorligiga tahdid solayotgan omillarni qayd etish va zarur hollarda muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda materiklarning ichki qismida joylashgan, xususan, Markaziy Osiyo daryolari kabi berk suv havzalarining avtohton, endemik va o'ziga xos baliq taksonlarini saqlab qolish asosida mazkur havzalarni faunistik tahlil qilish, turlarning tarqalishi, ekotizim xususiyatlariga bog'liq holda taqsimlanishi, bioekologik o'ziga xosligi, baliq turlarida kuzatiladigan morfologik o'zgaruvchanlikka sabab bo'luvchi omillar, kamyob va yo'qolib ketish arafasidagi turlarni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashga oid ilmiy tadqiqot ishlariga urg'u berilmoqda. Xususan, Orol dengizi havzasining mamlakatimiz hududidagi qismida *Aspiolucius*, *Dzihunia*, *Iskandaria*, *Pseudoscaphirhynchus* kabi endemik baliq urug'lari qayd etilgan bo'lib, ularning ayni vaqtdagi tur tarkibi, taksonomik hamda muhofaza maqomi, mahalliy ixtiofauna shakllanishidagi rolini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz hududidagi suv havzalarining baliqlar faunasini tadqiq etish ko'lami yildan-yilga oshib bormoqda. Bu borada, jumladan, bioxilma-xillikni o'rganish hamda saqlash borasidagi tadqiqotlar hamda mintaqa hayvonot dunyosining genofondini boyitishga qaratilgan izlanishlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida<sup>1</sup> "...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur'atlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish" kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, So'x daryosi baliqlarining xilma-xilligini aniqlash, ularni morfologik belgilarga ko'ra identifikatsiya qilish metodikasini takomillashtirish, kamyob, endemik va muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi to'g'risida" 484-son qarori.

foydalanish to'g'risida"gi 1997-yil 26-dekabrda 545-I-son Qonunlari (yangi tahriri), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son va "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa qonun osti hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoda turli ichki suv havzalaridagi ixtiofaunaning zamonaviy tur tarkibini aniqlash, umumiy taksonomik tahlilni o'tkazish, sistematik jihatdan qayta tasniflash, baliq turlarining morfometrik, bioekologik, filogenetik va biogeografik xususiyatlarini tadqiq etish borasida ko'plab xorijlik ilmiy tadqiqotchilar, jumladan, M. Kottelat (1997, 2012), B. Coad (1981, 1996, 2019), R.D. Ward va boshq. (2005), R.R. Miller (2006), B. Levin va boshq. (2017), S. Schönhuth va boshq. (2018), L.Zangl va boshq. (2019), C. Kaya va boshq. (2020), H.H. Ng va M.Kottelat (2022) va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlarida baliqlarning tur tarkibi, morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari hamda baliq turlarini muhofaza qilishga doir qator ilmiy ishlar K.F. Kessler (1872), L.S. Berg (1948, 1949a,b), F.A. Turdakov (1963), V.P. Mitrofanov (1989), L.A. Kustareva & A.M. Naseka (2015), R.Thoni va boshq. (2017), N.M. Mirzoyev (2019), N.Sh. Mamilov (2022), S. Artaev va boshq. (2025) va boshqalarning ilmiy-tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston, xususan, Farg'ona vodiysida suv havzalari baliqlarining faunistik tur tarkibi, tarqalishi, morfologik, qiyosiy morfometrik, bioekologik xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar F.A. Turdakov (1963), A. Boltaboyev (1971), M.Muhammadiyev (1984), M.F. Vundtsettel (1994), B.M. Sheraliev (2015), B. Sheraliev & Z. Peng (2021), Y. Qayumova (2022), M.Muqimov (2024), D.Komilova (2025) va boshqa bir qancha tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan.

So'x daryosi ixtiofaunasi shu vaqtgacha tadqiq etilmagan bo'lib, daryoda tarqalgan baliqlarning zamonaviy tur tarkibi, taksonomik holati, ularning havza bo'ylab taqsimlanish va uchrash chastotasi, morfologik xususiyatlari hamda muhofazaga muhtoj turlarini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona

davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Farg‘ona vodiysi o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** So‘x daryosi ixtiofaunasining zamonaviy tur tarkibi aniqlash, ularning morfologik, ekologik va bioxilma-xillik xususiyatlarini ochib berish hamda muhofazaga muhtoj turlarini muhofaza qilishning ekologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

So‘x daryosi havzasida tarqalgan baliqlarni faunistik va taksonomik jihatdan asoslash;

So‘x daryosi havzasi baliqlarini morfometrik asosga ko‘ra qiyosiy tahlil etish va to‘liq aniqlagichini shakllantirish;

So‘x daryosida uchrovchi *Cottus spinulosus* populyatsiyasini ushbu turning Farg‘ona vodiysidagi boshqa populyatsiyalari bilan integrativ taksonomik jihatdan solishtirma tahlil etish;

So‘x daryosida uchrovchi *Triplophysa daryoae* turini Farg‘ona vodiysida tarqalgan boshqa *Triplophysa* vakillari bilan o‘zaro morfotaksonomik tadqiq etish;

So‘x daryosi baliqlarining umumiy uzunligi va og‘irligi ko‘rsatkichlari orasidagi bog‘liqlik hamda to‘yinganlik ko‘rsatkichlari asosida baliq turlari populyatsiyalarining ekologik holatini baholash;

So‘x daryosi ixtiofaunasining bioxilma-xillik indekslarini aniqlashtirish hamda havzaga xos bo‘lgan muhofaza maqomini belgilashdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida So‘x daryosida tarqalgan baliqlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** So‘x daryosida tarqalgan baliqlarning tur tarkibi, tarqalishi, morfometrik, meristik ko‘rsatkichlari, ekologik hamda muhofaza masalalari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda faunistik, taksonomik, morfologik, molekulyar, ekologik, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk marotaba So‘x daryosi ixtiofaunasining zamonaviy tur tarkibi 4 turkum, 9 oila, 13 urug‘ga mansub 14 turdan iborat ekanligi aniqlangan;

Sirdaryo havzasi endemigi *Cottus spinulosus* Kessler, 1872 ning So‘x, Marg‘ilonsoy va Qoradaryo populyatsiyalarining molekulyar-genetik tahlili asosida So‘x populyatsiyasi boshqa populyatsiyalardan 0,62% (K2P) genetik farqlanishga ega ekanligi isbotlangan;

So‘x daryosi uchun endemik bo‘lgan *Triplophysa daryoae* Farg‘ona vodiysi suv havzalarida uchrovchi *Triplophysa* urug‘ining boshqa turlaridan morfotaksonomik jihatdan farqlanishi statistik tahlillar asosida asoslab berilgan;

ilk marotaba So‘x daryosi yuqori, o‘rta va quyi oqimidagi ixtiofaunaning bioxilma-xillik ko‘rsatkichi Shennon, Simpson, Pielou, Margalef, Menhinik hamda Berger-Parker indeksleri asosida baholangan;

So‘x daryosi endemik turi *Triplophysa daryoae* uchun yangi maksimal umumiy uzunlik 113,2 mm ekanligi asoslangan;

So‘x havzasidagi 14 ta baliq turining umumiy uzunligi va og‘irligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatkichi hisoblangan hamda ularning 3 ta turi izometrik, 1 ta turi manfiy allometrik va 10 ta turi ijobiy allometrik o‘shish ko‘rsatkichlariga ega ekanligi aniqlangan;

So‘x daryosida uchrovchi 14 ta baliq turining havza uchun xos bo‘lgan muhofaza maqomi TMXI mezonlari asosida shakllantirilgan, unga ko‘ra, 13 ta tur kamroq xavf ostida bo‘lgan turlar hamda 1 ta tur (*Triplophysa daryoae*) qirilib ketish arafasidagi tur maqomida ekanligi baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

So‘x daryosida uchrovchi baliqlarning uzunlik-og‘irlik munosabatlari, to‘yinganlik ko‘rsatkichlari va mazkur turlarning So‘x daryosi uchun xos bo‘lgan muhofaza maqomi TMXI mezonlari asosida shakllantirilgan hamda mazkur turlar populyatsiyalarining ekologik holatini integrativ monitoring qilishning ilmiy asoslari yaratilgan;

So‘x daryosi havzasidagi baliqlarni to‘g‘ri identifikatsiya qilish uchun keng ko‘lamli morfologik-morfometik ko‘rsatkichlarga asoslangan dixotomik aniqlagich ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o‘tkazilgan tadqiqotlarda klassik va zamonaviy usullarning qo‘llanilganligi, ishning tahliliy statistik tadqiqot qismida asosiy komponentlar tahlili (PCA) kabi uslublardan foydalanilganligi, So‘x daryosida uchrovchi baliq turlarining umumiy uzunlik va og‘irlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsion munosabatlar “Acta Ichthyologica et Piscatoria” va “Turkish Journal of Zoology” kabi nufuzli xorijiy jurnallar tomonidan qator xalqaro ekspertlar tekshiruvidan o‘tkazilganligi, So‘x daryosi baliqlarining tarqalishi bo‘yicha ma‘lumotlar Global biologik xilma-xillik ma‘lumotlari tizimi (Global Biodiversity Information Facility, GBIF) axborot bazasiga joylashtirilganligi, shu bilan birga, o‘tkazilgan tadqiqotlarda olingan natijalar respublika hamda xalqaro doiradagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, nufuzli nashrlarda chop etilganligi, tadqiqotning amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati So‘x daryosi suv havzasida tarqalgan baliqlar faunasining hozirgi zamonaviy tur tarkibining aniqlanganligi, taksonomik tahlil qilinganligi, *Cottus spinulosus* turining integrativ taksonomik uslub qo‘llagan holda tur ichidagi yuqori xilma-xilligining asoslanganligi, *Triplophysa* turlarining morfologik va meristik ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchanlik xususiyatlarining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamda So‘x daryosi uchun xos bo‘lgan kamyob va muhofazaga muhtoj baliq turlarining kadastri yaratilganligi, So‘x daryosi havzasida uchrovchi baliqlarning dixotomik aniqlagichi shakllantirilganligi hamda havzadagi ixtiofaunasi tabiiy yashash muhitini saqlab qolish va himoya qilish chora-tadbirlarini tashkil etishga hamda tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanishni ta‘minlashga asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** So‘x daryosi suv havzasi baliqlarining faunasi va ekologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*Cottus spinulosus* turining COI nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha ma‘lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBank bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi, ncbi.nlm.nih.gov). Natijada, PV111708 va PV111709 inventar raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda ushbu turning filogeniyasini molekulyar-genetik identifikatsiyalash imkonini bergan;

So‘x daryosida uchrovchi 14 baliq turining havza bo‘ylab tarqalishi bo‘yicha qayd etilgan hududlar (koordinatalari), ixtiosenozlardagi miqdori, tadqiqot davomida olingan original rasmlar, Global biologik xilma-xillik ma‘lumotlar tarmog‘iga (GBIF) joylashtirilgan (Global biologik xilma-xillik ma‘lumotlar tarmog‘ining 13-may 2025-yil, №039-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Global biologik xilma-xillik ma‘lumotlar tarmog‘ida So‘x daryosida tarqalgan 14 baliq turi bo‘yicha global tahlil qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi Scopus va Web of Science bazalarida indeksatsiyalangan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni hajmi 105 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston, jumladan, Farg‘ona vodiysida baliqlarining o‘rganilishi”** deb nomlangan birinchi bobida Orol dengizi havzasi, jumladan, O‘zbekistonda baliqlar faunasini tadqiq etish bo‘yicha eng muhim tadqiqotlar xronologiyasi keltirilgan. Bobning **“Farg‘ona vodiysida ixtiofaunasini tadqiq etishning tadrijiy taraqqiyot yo‘li”** deb nomlangan qismida vodiy suv havzalarida baliqlarning o‘rganilishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari xronologik tartibda tahlil qilingan. Dastlab, K.Kessler (1872) vodiy ixtiofaunasiga oid 6 baliq turini tavsiflagan bo‘lsa, keyinroq V.I. Kushelevskiy (1890) 10 dan ortiq baliq turlarining xususiyatlariga to‘xtalib o‘tgan. Vodiy ixtiofaunasini tadqiq etishda

L.Berg (1948, 1949), G.Nikolskiy (1938) hamda F.Turdakov (1963)larning xizmatlari benihoyat katta bo'lgan. So'nggi tadqiqot ishlarining aksariyati B.Sheraliyev va uning jamoasiga tegishli bo'lib, ular vodiy ixtiofaunasini faunistik, morfologik, ekologik jihatdan tadqiq etib bormoqdalar. Tadqiqotlari natijasida fan uchun yangi bo'lgan *Triplophysa ferganaensis* (Shohimardonsoy), *Triplophysa daryoae* (So'x) hamda *Dzhunia pseudoamudarjensis* (Katta Farg'ona kanali) kabi baliq turlari kashf etildi. Bobning "So'x daryosi ixtiofaunasining tadqiq etilish holati" deb nomlangan so'nggi qismida So'x daryosi ixtiofaunasining o'rganilishi borasidagi kompleks tadqiqotlarning mavjud emasligi hamda ixtiofaunani tadqiq etishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Dissertatsiyaning "**So'x daryosi ixtiofaunasini o'rganish materiallari va metodikasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida dastlab Farg'ona vodiysi suv havzalarining gidrologik tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot areali hisoblangan So'x daryosi mazkur dissertatsiya doirasida yuqori, o'rta va quyi oqimga ajratilgan. Tadqiqot materiallari 2021-2024 yillar davomida So'x daryosining 26 ta nuqtasidan yig'ilgan. Namuna ovlashda to'r "ko'z"i 2x2 mm, uzunligi 2-3 metr bo'lgan kichik to'rdan foydalanildi. Bitta ovlash nuqtasidan bir namuna olish vaqtida bitta turdan ko'pi bilan 12-15 dona namuna olindi. Molekulyar tadqiqotlar uchun baliqning o'ng ko'krak suzgich qanoti steril holatda kesilib 96% li etil spirtiga solindi. Qolgan namunalar morfologik tekshirish maqsadida dastlab 4-10% formalin eritmasida fiksatsiya qilindi. Oradan 3-7 kun o'tgach doimiy saqlash uchun 70% li etil spirtiga solindi.

So'x daryosidan tutilgan baliq turlarini aniqlashda L.S. Berg (1948, 1949), F.A. Turdakov (1963), V.Sideleva (2021), B.Sheraliyev, Y.Kayumova & Z.Peng (2022) ma'lumotlari hamda aniqlagichlaridan foydalanildi. Turlarning taksonomik holati Eschmeyer's Catalog of Fishes asosida berildi.

DNK barkoding uchun mtDNK ning COI barkod genidan foydalanildi, bunda Ward et al. (2005) tomonidan tavsiya qilingan FishF1: 5'-TCA ACC AAC CAC AAA GAC ATT GGC AC-3' va FishR1: 5'-TAG ACT TCT GGG TGG CCA AAG AAT CA-3' praymerlardan foydalanildi. Molekulyar tahlillar Mega7, CLUSTAL\_W va SeaView dasturlari asosida amalga oshirilgan.

Baliqlarning morfometrik ko'rsatkichlarini hisoblash M.Kottelat & J.Freyhof (2007), V.Sideleva (2015), R.Fricke (1984) metodlaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Uzunlik va og'irlik orasidagi munosabat hamda to'yinganlik ko'rsatkichlari esa R.Froese (2006), Sparre & Venema (1998) metodikasi asosida hisoblandi. Variatsiya va korrelyatsiya koeffitsientlariga oid statistik ma'lumotlar G.F.Lakin (1990), N.A.Ploxinskiy (1970), G.VChudnovskaya (1998) qo'llanmasida keltirib o'tilgan usullar bo'yicha tahlil etildi. Biologik xilma-xillik indekslarini hisoblash uchun Shannon, Simpson, Pielou, Margalef, Menhinik hamda Berger-Parker indeksleri qo'llanildi.

Dissertatsiyaning "**So'x daryosi baliqlarining faunistik hamda taksonomik tahlili**" deb nomlangan uchinchi bobi yettita bo'limdan iborat bo'lib, So'x daryosida uchrovchi baliqlarning tur tarkibi, taksonomik tahlili, tarqalishi hamda yuqori va

oʻrta oqimda tarqalgan turlarning integrativ taksonomik tahliliga oid tadqiqot natijalari taqdim etilgan.

Uchinchi bobning birinchi va ikkinchi boʻlimida Soʻx daryosi ixtiofaunasining zamonaviy tur tarkibi, taksonomik tahlili va ushbu turlarning havzada tarqalishi haqidagi maʼlumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, Soʻx daryosida ayni vaqtda 4 turkum, 9 oila, 13 urugʻga mansub 14 baliq turlari qayd etilgan.

Quyida Soʻx daryosida qayd etilgan turlarning roʻyxati zamonaviy sistematika va taksonomik nomenklatura asosida keltirilgan.

**Turkum I. Cypriniformes** Goodrich, 1909 – Karpsimonlar

**Oila 1. Nemacheilidae** Regan, 1911 – Daryo yalangbaliqlari

1. *Triplophysa daryoae* SHERALIEV, KAYUMOVA & PENG, 2022 – Soʻx yalangbaligʻi

2. *Triplophysa strauchii* (Kessler, 1874) – Dogʻli yalangbaliq

**Oila 2. Cyprinidae** Rafinesque, 1815 – Karplar

3. *Carassius gibelio* (Bloch, 1782) – Kumushrang tobonbaliq

4. *Schizothorax eurystomus* Kessler, 1872 – Qora baliq

**Oila 3. Xenocyprididae** Günther, 1868 – Sharqiy Osiyo chebak baliqlari

5. *Hemiculter leucisculus* (Basilewsky, 1855) – Qirraqorin

**Oila 4. Acheilognathidae** Bleeker, 1863 – Taxirbaliqlar

6. *Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866) – Koʻzli taxirbaliq

**Oila 5. Gobionidae** Bleeker, 1863 – Qumbaliqlar

7. *Abbottina rivularis* (Basilewsky, 1855) – Amur soxta qumbaligʻi

8. *Gobio lepidolaemus* Kessler, 1872 – Turkiston qumbaligʻi

9. *Pseudorasbora parva* (Temminck & Schlegel, 1846) – Amur chebakchasi

**Oila 6. Leuciscidae** Bonaparte, 1835 – Oqqayroqlar

10. *Alburnus taeniatus* Kessler, 1874 – Chiziqli tezsuzar

11. *Leuciscus squaliusculus* (Kessler, 1872) – Turkiston oq chebagi

**Turkum II. Gobiiformes** Günther, 1880 – Buqabaliqsimonlar

**Oila 7. Odontobutidae** Hoese & Gill, 1993 – Chuchuk suv uyquchilari

12. *Micropercops cinctus* (Dabry de Thiersant, 1872) – Eleotris

**Turkum III. Cyprinodontiformes** Berg, 1940 – Karptishsimonlar

**Oila 8. Poeciliidae** Bonaparte, 1831 – Gambuziyalar

13. *Gambusia holbrooki* Girard, 1859 – Holbruk gambuziyasi

**Turkum IV. Perciformes** Bleeker, 1863 – Olabugʻasimonlar

**Oila 9. Cottidae** Bonaparte, 1831 – Toshbuqabaliqlar

14. *Cottus spinulosus* Kessler, 1872 – Turkiston toshbuqasi

Soʻx daryosi ixtiofaunasining uning yuqori, oʻrta va quyi oqimi boʻylab tarqalishi tahlil etilgan. Unga koʻra, yuqori oqimda uch tur (*C. spinulosus*, *S. eurystomus* va *T. daryoae*), oʻrta oqimda toʻrt tur (*C. spinulosus*, *G. lepidolaemus*, *S. eurystomus* va *T. daryoae*) va quyi oqimda 13 tur (havzadagi faqatgina *T. daryoae* quyi oqimda qayd etilmadi) uchrashi maʼlum boʻldi.


Bobning uchinchi bo‘limida So‘x daryosi baliqlari (1-rasm)ni identifikatsiya qilishga qaratilgan umumiy morfologik tahlil o‘tkazilgan hamda So‘x daryosi baliqlarini aniqlash uchun aniqlagich tuzib chiqilgan.



**3.1-rasm.** So‘x daryosi ixtiofaunasi vakillarining original rasmlari: A-A. *rivularis*; B-A. *taeniatus*; C-C. *gibelio*; D-C. *spinulosus*; E-G. *holbrooki*; F-G. *lepidolaemus*; G-H. *leucisculus*; H-L. *squaliusculus*; I-M. *cinctus*; J-P. *parva*; K-R. *ocellatus*; L-S. *eurystomus*; M-T. *daryoae*; N-T. *strauchii* (masshtab 10 mm)


Bobning “Farg‘ona vodiysidagi *Cottus spinulosus* populyatsiyalarining integrativ taksonomik tahlili” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida *C. spinulosus* ning So‘x, Marg‘ilonsoy hamda Qoradaryo populyatsiyalari molekulyar, morfometrik, statistik hamda asosiy komponentlar tahliliga ko‘ra solishtirma tekshirilgan. Molekulyar-genetik tahlil natijalariga ko‘ra, *C. spinulosus* ning So‘x populyatsiyasi

Qoradaryo va Marg‘ilonsoy populyatsiyalaridan COI barkod geniga asosan 0,62% genetik masofa (K2P)ga egaligi aniqlangan (2-rasm).



**2-rasm.** Farg‘ona vodiysidan yig‘ilgan *Cottus spinulosus* hamda *Cottus jaxartensis* (*Cottus gobio* tashqi guruh [outgroup] sifati) ning ‘Neighbor-Joining‘ uslubida yaratilgan filogenetik shajara daraxti

Styudent mezoni (t-taqsimot) bo‘yicha 1% ahamiyatlilik darajasida ( $P < 0,01$ ) qiyosiy tahlil etilganda esa So‘x va Marg‘ilonsoy populyatsiyalari orasida 15 ta, So‘x va Qoradaryo populyatsiyalari orasida 2 ta va Qoradaryo hamda Marg‘ilonsoy populyatsiyalari orasida esa 1 ta morfometrik belgining qiymatlari o‘rtasida ishonchli darajada farq borligini ( $t_f > t_{st}$ ) qayd etilgan. Asosiy komponentlar tahlili (PCA) natijalarida PC1 va PC2 kordinatalarida qurilgan tarqalish diagrammasida So‘x populyatsiyaning *Cottus spinulosus* ning Marg‘ilonsoy hamda Qoradaryo populyatsiyalaridan ajralib turgan aniq klasteri ajratilgan (3-rasm).



**3-rasm.** *Cottus spinulosus* uch populyatsiyasining morfometrik ma‘lumotlari asosida tuzilgan PC1 va PC2 bo‘yicha tarqalish diagrammasi.

Bobning “*Triplophysa daryoae* va boshqa mahalliy *Triplophysa* urug‘i vakillarining morfotaksonomik tahlili” deb nomlangan beshinchi bo‘limida dastlab *T. daryoae* ning morfologik, morfometrik hamda variatsiya koeffitsiyentiga asoslangan o‘zgaruvchanlik ko‘rsatkichlari tahlil etilgan (4-rasm).



4-rasm. *Triplophysa daryoae* ~70 mm SL, So‘x daryosi, 2024-yil

Shundan so‘ng, vodiy suv havzalarida uchrovchi *Triplophysa* urug‘i vakillari o‘zaro morfologik jihatdan solishtirma tadqiq qilingan (1-jadval).

1-jadval


**Farg‘ona vodiysi *Triplophysa* urug‘i vakillarining o‘zaro farqlanishda qo‘llaniluvchi morfologik va morfometrik belgilari**

Morfologik va morfometrik ko‘rsatkichlar	<i>T. dorsalis</i>	<i>T. daryoae</i>	<i>T. elegans</i>	<i>T. ferganaensis</i>	<i>T. strauchii</i>
Dorsal suzgich qanot nurlari	7	6–7	6–7	7-8	7-8
Anal suzgich qanot nurlari	5	5	5	5	5
Ko‘krak suzgich qanoti nurlari	10-11	9-11	10-13	11-13	11-12
Qorin suzgich qanot nurlari	7	6	6-7	7-8	7-8
Dum suzgich qanot nurlari	16	14	16	16	16
Jabra qilchalari soni	13-16	9-10	13-14	10-11	12-16
Umurtqalar soni	38-39	39	42-43	39-40	41-42
Tana balandligi (SL %)	13,6-18,2	12,4-15,3	13,4-15,8	14,6-17,4	17,7-19,1
Dum bandi uzunligi (SL %)	19,3-20,8	19,1-23,1	21,5-24,3	18,5-23,1	18,7-23,4
Dum bandi uzunligi/balandligi	2,3-2,8	2,2-2,9	3,2-3,5	2,1-2,8	2,5-3,1
Dum bandi eni balandligidan	kichik	kichik	kichik	kichik	katta
Dum suzgich qanoti shakli	o‘yiq	kesik	o‘yiq	o‘yiq	o‘yiq
Lab burmalari	yo‘q	bor	bor	bor	bor
Suzgich pufagining mavjudligi	bor	yo‘q	yo‘q	yo‘q	bor

Shu bilan birga, *T. daryoae* va biz tomonimizdan Farg‘ona vodiysi suv havzalaridan qayd etilgan *Triplophysa* urug‘i vakillari – *T. ferganaensis*, *T. elegans* hamda *T. strauchii* namunalarining morfometrik belgilari Student mezoni (t-taqsimot) bo‘yicha 1% ahamiyatlilik darajasida ( $P < 0,01$ ) qiyosiy tahlil etilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, *T. daryoae* va *T. ferganaensis* orasida 16 ta, *T. strauchii* bilan 24 ta va *T. elegans* bilan 14 ta morfometrik belgisining qiymatlari o'rtasida ishonchli darajada farq borligini ( $t_f > t_{st}$ ) aniqlangan.

Asosiy komponentlar tahlili (PCA) o'tkazilganda PC1 va PC2 koordinatalarida qurilgan tarqalish diagrammasida *T. daryoae* Farg'ona vodiysida uchrovchi boshqa barcha *Triplophysa* urug'i vakillaridan yaqqol ajralib turgan, bunday holat *T. strauchii* bilan ham kuzatilgan. *Triplophysa ferganaensis* va *T. elegans* esa qisman kesishgan (5-rasm).



**5-rasm.** Farg'ona vodiysi *Triplophysa* urug'i vakillarining morfometrik ma'lumotlari asosida tuzilgan birinchi va ikkinchi asosiy komponentlar bo'yicha tarqalish diagrammasi


PC1 komponentida asosiy yuklamaga ega bo'lgan sakkizta morfometrik belgi - anus-anal masofasi (0,29113), ko'krak-qorin masofasi (0,27472), preanal uzunlik (0,21984), ko'krak qanot uzunligi (0,20577), postorbital uzunlik (0,19271), prepelvik uzunlik (0,19086), maksimum bosh eni (0,18863), qorin qanot uzunligi (0,18753), bo'lib, PC2 da esa dum bandi eni (0,33292), dum bandi balandligi (0,28725), tana eni (maksimum) (0,27987), anal qanot asosi uzunligi (0,24817) va dorsal qanot asosi uzunligi (0,21365) asosiy yuklamalarga ega bo'lgan.

Bobning oltinchi va yettinchi bo'limlarida So'x daryosining yuqori va o'rta oqimidan qayd etilgan *Gobio lepidolaemus* hamda *Schizothorax eurystomus* larning morfologik, meristik hamda variatsiya koeffitsiyentiga asoslangan o'zgaruvchanlik xususiyatlari bayon qilingan. Tadqiqot natijasida *S. eurystomus* ning So'x populyatsiyasida tekshirilgan 31 morfometrik ko'rsatkichdan 5 tasi - tananing dorsal suzgich qanot boshlanish nuqtasidan o'lchangan balandligi (9,79), dum bandining

eni (18,64), ko‘z diametri (19,41), yuqori jag‘ mo‘ylov uzunligi (28,60) va tashqi og‘iz mo‘ylov uzunligi (28,03)da yuqori o‘zgaruvchanlik ( $V \geq 9,50$ ) qayd etilgan.

Dissertatsiyaning “So‘x daryosi baliqlarining ekologiyasi va muhofaza masalalari” deb nomlangan to‘rtinchi bobi uchta bo‘limdan iborat bo‘lib, dastlabki bo‘limda So‘x daryosidan qayd etilgan 14 turdagi baliqlarning uzunlik-og‘irlik munosabatlari hamda to‘yinganlik indekslarini o‘rganilgan. Bunda umumiy holda 14 turdan iborat bo‘lgan jami 911 ta baliq namunalarining o‘lchamlari hisoblab chiqilgan. Mazkur tadqiqot davomida *Triplophysa daryoae* ning fan uchun yangi bo‘lgan maksimal umumiy uzunligi qayd etilgan. Bundan avvalgi uning uzunligi 112,4 mm ni tashkil etgan bo‘lib (Sheraliev et al., 2022), mazkur dissertatsiya tadqiqotida uning 113,2 mm namunasi aniqlangan. Mazkur tadqiqot davomida to‘plangan turlar uchun aniqlash determinatsiya koeffitsiyenti ( $r^2$ ) 0,96 dan 0,99 gacha,  $a$  qiymati 0,005 dan 0,019 gacha va  $b$  qiymatlari 2,92 dan 3,42 gacha bo‘lgan. Tadqiq etilgan baliqlarning  $b$  qiymatlariga ko‘ra, *Abbottina rivularis*, *Cottus spinulosus*, *Gambusia holbrooki*, *Gobio lepidolaemus*, *Hemiculter leucisculus*, *Leuciscus squaliusculus*, *Micropercops cinctus*, *Pseudorasbora parva*, *Rhodeus ocellatus* va *Triplophysa daryoae* ijobiy allometriyaga hamda *Alburnus taeniatus*, *Carassius gibelio* va *Schizothorax eurystomus* lar esa izometrik o‘shish turiga ega ekanligi qayd etildi. Birgina *Triplophysa strauchii* da manfiy allometrik o‘shish qayd etilgan.


Fulton to‘yinganlik indeksi ( $K_F$ ) va uzunlik-og‘irlik munosabatlaridagi regressiya koeffitsiyenti o‘zaro bir-biri bilan bevosita bog‘liqdir. Agar  $b=3$  bo‘lsa,  $K_F$  doimiy qiymat, ya’ni 1 atrofida bo‘ladi. Biroq  $b$  ning 3 dan yuqori yoki pastga og‘ishi  $K_F$  qiymatining shunga mos ravishda ortishi yoki kamayishiga olib keladi (Soni & Ujjania, 2017). So‘x daryosi baliqlarini  $K_F$  bo‘yicha tadqiq etganimizda ko‘pchilik o‘rganilgan turlar uchun Fulton to‘yinganlik indeksining o‘rtacha qiymati kutilgan diapazon doirasida bo‘lgani aniqlangan, *Hemiculter leucisculus*, *Triplophysa daryoae* hamda *Triplophysa strauchii* turlarida ko‘rsatkich meyordan pastda ekanligi qayd etilgan (6-rasm).



**6-rasm.** So‘x daryosida uchrovchi baliqlarning Fulton to‘yinganlik indeksining grafik ko‘rinishi

Nisbiy to‘yinganlik indeksi (Kn) qiymatlari 100 dan past bo‘lsa, bu holat baliqlarda ozuqaviy resurslarning yetishmasligi va yirtqichlar bosimining yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini, aksincha, Kn ning yuqori qiymati yetarli ozuqa mavjudligi va yirtqichlik bosimining pastligidan darak beradi (Froese, 2006; Sabido-Itza et al., 2016).

So‘x daryosida o‘rganilgan barcha baliq turlari bo‘yicha Kn ko‘rsatkichining o‘rtacha qiymati  $100,51 \pm 10,075$  ni tashkil etdi (7-rasm). Tadqiqotda ko‘rilgan barcha baliq turlarida  $Kn \approx 100$  bo‘lgani inobatga olinsa, bu holat ularning yashash muhitida ozuqa manbalari va yirtqichlar ta‘siri nisbatan barqaror ekanligidan dalolat beradi.



**7-rasm.** So‘x daryosida uchrovchi baliqlarning nisbiy to‘yinganlik indeksining grafik ko‘rinishi


Bobning “So‘x daryosi ixtiofaunasining bioxilma-xillik ko‘rsatkichlari” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida So‘x daryosining yuqori, o‘rta va quyi oqimi Shennon, Simpson xilma-xillik, Pielou tenglik, Margalef tur boyligi, Menhinik hamda Berger-Parker dominantlik indeksleri bo‘yicha tahlil qilindi (2-jadval va 8-rasm).

2-jadval

**So‘x daryosi yuqori, o‘rta va quyi oqimida uchrovchi baliqlar biologik xilma-xilligini baholashda qo‘llanilgan turli indekslar ko‘rsatkichlari**

	Yuqori oqim	O‘rta oqim	Quyi oqim
Turlar soni	3	4	13
Namunalar soni	94	190	805
Shennon indeksi	1,02	1,07	2,34
Simpson indeksi	0,62	0,62	0,89
Pielou tenglik indeksi	0,93	0,77	0,91
Margalef tur boyligi indeksi	0,44	0,57	1,79
Menhinik indeksi	0,31	0,29	0,46
Berger-Parker ustunlik indeksi	0,51	0,51	0,17

Shannon indeksi bo'yicha o'rganilgan hududlar tahlil qilinganda, biror oqimda biologik xilma-xilligi yuqori darajadagi ko'rsatkichga ( $2,5 < H'$ ) ega emasligi qayd etilgan. Quyi oqim o'rtacha ko'rsatkich ( $1,5 < H' < 2,5$ ) va yuqori hamda o'rta oqim esa biologik xilma-xillik ko'rsatkich past ( $H' < 1,5$ ) ekanligi ma'lum bo'lgan. Qolgan indekslar bo'yicha natijalar 2-jadval va 8-rasmda keltirilgan.



**8-rasm.** So'x daryosi yuqori, o'rta va quyi oqimi baliqlari biologik xilma-xillik ko'rsatkichlarining Simpson, Pielou, Margalef, Menhinick hamda Berger-Parker indeksleri ko'rsatkichlari

Bobning "So'x daryosi baliqlarining muhofaza masalalari" nomli uchinchi bo'limida So'x daryosida qayd etilgan 4 turkum, 9 oila, 13 urug'ga mansub 14 baliq turlarining TMXI Qizil ro'yxatidagi joriy maqomlari tahlil etildi hamda kuzatuvlarimiz davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida tur maqomiga oid qo'shimchalar takliflar shakllantirilgan (3-jadval).

3-jadval

**So'x daryosida uchrovchi baliqlarni TMXI Qizil ro'yxatidagi muhofaza maqomi hamda ularni ushbu tadqiqot natijalari asosida baholash ko'rsatkichlari**

No	Tur nomi	TMXI bo'yicha maqomi	TMXI bo'yicha populyatsiyasi holati	Biz taklif etayotgan maqomi	So'xdagi populyatsiyasining holati
1.	<i>Abbottina rivularis</i>	LC	Barqaror →	LC	Barqaror →
2.	<i>Alburnus taeniatus</i>	DD	Noma'lum	LC	Barqaror →
3.	<i>Carassius gibelio</i>	NE	NE	LC	Barqaror →
4.	<i>Cottus spinulosus</i>	LC	Qisqaruvchi ↓	LC	Qisqaruvchi ↓
5.	<i>Gambusia holbrooki</i>	LC	Barqaror →	LC	Barqaror →
6.	<i>Gobio lepidolaemus</i>	LC	Barqaror →	LC	Barqaror →
7.	<i>Micropercops cinctus</i>	LC	Noma'lum	LC	Barqaror →
8.	<i>Hemiculter leucisculus</i>	LC	Noma'lum	LC	Barqaror →
9.	<i>Leuciscus squaliusculus</i>	LC	Barqaror →	LC	Barqaror →
10.	<i>Pseudorasbora parva</i>	LC	Noma'lum	LC	Barqaror →
11.	<i>Rhodeus ocellatus</i>	DD	Noma'lum	LC	Barqaror →
12.	<i>Schizothorax eurystomus</i>	LC	Qisqaruvchi ↓	LC	Barqaror →
13.	<i>Triplophysa daryoae</i>	NE	NE	EN	Qisqaruvchi ↓
14.	<i>Triplophysa trauchii</i>	LC	Barqaror →	LC	Barqaror →

**Izoh:** NE (Not Evaluated) – xavf darajasi baholanmagan turlar; DD (Data Deficient) – yetarlicha ma’lumot mavjud bo‘lmagan turlar; LC (Least Concern) – kamroq xavf ostida bo‘lgan turlar; EN (Endangered) – qirilib ketish arafasida bo‘lgan turlar.

So‘x daryosining barcha qismida uchrovchi 14 baliq turlarini TMXI mezonlari asosida xususiyl baholash natijasida havzadagi bir tur qirilib ketish arafasidagi tur [EN] (*Triplophysa daryoae*), va 13 tur kamroq xavf ostida bo‘lgan turlar [LC] sifatida baholangan (3-jadval).

*Triplophysa daryoae* ma’lum ma’lumotlarga ko‘ra, So‘x daryosining yuqori va o‘rta oqimida uchraydi. Tojikiston baliqlarining tur tarkibi hamda mamlakat suv havzalari bo‘ylab taqsimlanishi tadqiq etilganda, Tojik dengizidan so‘ng Sirdaryo asosiy o‘zanining chap qirg‘og‘ida Dehmoy qishlog‘idagi buloqda *T. daryoae* ga juda o‘xshash yalangbaliq namunalari qayd etilgan (Artaev et al., 2025). Ushbu qayd etilgan namunani *T. daryoae* deb hisoblagan holda hamda So‘x daryosidan qayd etilgan namunalarning tarqalish koordinatalaridan foydalangan holda GeoCAT dasturi yordamida mazkur turning muhofaza maqomi tekshirib ko‘rilgan. Tekshirish natijalariga ko‘ra *T. daryoae* ning tarqalish darajasi 1,666.285 km<sup>2</sup> ni, yashash areali esa 24,000 km<sup>2</sup> ni tashkil qilgan (9-rasm).



**9-rasm.** *Triplophysa daryoae* muhofaza maqomini GeoCAT dasturi tekshirish natijalari (<https://geocat.iucnredlist.org/>)

Bu esa *T. daryoae* ning muhofaza maqomini qirilib ketish arafasida bo‘lgan tur (Endangered [EN]) sifatida belgilash imkonini bergan.

## XULOSALAR

“So‘x daryosi suv havzasi baliqlari (Actinopterygii: Teleostei) ning faunasi va ekologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Mazkur tadqiqot davomida ilk marotaba So‘x daryosining ixtiofaunasining zamonaviy tur tarkibi aniqlandi. Unga ko‘ra, So‘x daryosida baliqlarning 4 turkum, 9 oila, 13 urug‘ga mansub 14 turi uchrashi aniqlandi.

2. So‘x daryosida uchrovchi baliqlarning tarqalish va umumiy ixtiososenozning shakllanishi tadqiq etilganda, daryoning yuqori oqimida 3, o‘rta oqimida 4 va quyi oqimida 13 baliq uchrashi ma‘lum bo‘ldi. *Triplophysa daryoae* So‘x daryosi endemik turi sifatida qayd etildi.

3. So‘x daryosida tarqalgan 14 baliq turi uchun xos bo‘lgan morfologik hamda morfometrik ko‘rsatkichlar umumiy tahlil etilgan holda havza ixtiofaunasini aniqlash uchun baliqlar aniqlagichi ishlab chiqildi va bu daryo baliqlarini to‘g‘ri va yuqori aniqlikda identifikatsiya qilish imkonini berdi.

4. Farg‘ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan *Cottus spinulosus* ning uch (So‘x, Marg‘ilonsoy va Qoradaryo) populyatsiyalari molekulyar-genetik (COI barkod geni asosida) va morfometrik jihatdan tahliliy tadqiq etildi. Unga ko‘ra, So‘x populyatsiyasi genetik jihatdan Qoradaryo hamda Marg‘ilonsoy populyatsiyasidan 0,62% ga farq qilishi aniqlandi. Student mezon (t-taqsimot) bo‘yicha 1% ahamiyatlilik darajasida ( $P < 0,01$ ) qiyosiy tahlil etilganda esa, *Cottus spinulosus* ning So‘x populyatsiyasi Marg‘ilonsoy populyatsiyasidan 15, Qoradaryo populyatsiyasidan esa 2 belgisi bo‘yicha ishonchli darajada farqlanishi aniqlandi.

5. *Triplophysa daryoae* Farg‘ona vodiysi suv havzalarida uchrovchi triplophysa urug‘ining boshqa turlari bilan solishtirma tahlil qilindi. Student mezon (t-taqsimot) bo‘yicha 1% ahamiyatlilik darajasida ( $P < 0,01$ ) qiyosiy tahlil etilganda *T. daryoae* *T. ferganaensis* bilan 16 ta, *T. strauchii* bilan 24 ta va *T. elegans* bilan 14 ta belgi bo‘yicha ishonchli darajada farqlanishi ma‘lum bo‘ldi.

6. So‘x daryosi endemigi hisoblanuvchi *Triplophysa daryoae* ning yangi maksimal umumiy uzunligi qayd etildi. Uning yangi maksimal umumiy uzunligi 113,2 mm ga teng ekanligi aniqlandi.

7. So‘x daryosida uchrovchi 14 baliq turining umumiy uzunligi va og‘irligi orasidagi bog‘liqlik ko‘rsatkich hisoblandi. Unga ko‘ra 3 tur izometrik, 1 tur manfiy allometrik va 10 tur ijobiy allometrik o‘shish ko‘rsatkichlariga ega ekanligi qayd etildi.

8. So‘x daryosining yuqori, o‘rta va quyi oqimi ixtiofaunasi biologik xilma-xillik ko‘rsatkichi Shennon, Simpson, Pielou, Margalef, Menhinik hamda Berger-Parker indeksleri bilan tekshirildi va quyi oqimda biologik xilma-xillik ko‘rsatkichi yuqori ekanligini asoslantirildi.

9. So‘x daryosida uchrovchi baliqlarning TMXI bo‘yicha maqomi hamda So‘x daryosidagi populyatsiyalari holati tahlil qilindi. Bir tur qirilib ketish arafasida bo‘lgan tur [EN] (*Triplophysa daryoae*) va 13 tur kamroq xavf ostida bo‘lgan turlar [LC] sifatida baholandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РнД.03/30.06.2021.В.05.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**УРМОНОВА ДИЛАФРУЗ ЭРКИНЖОНОВНА**

**ФАУНА И ЭКОЛОГИЯ РЫБ (АСТИНОПТЕРЫГИИ: TELEOSTEI)  
БАССЕЙНА РЕКИ СОХ**

**03.00.06 – Зоология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РнД) ПО  
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Фергана–2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/B883.

Диссертационная работа выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный консультант:**

**Шералиев Бахтиёр Махмутаги угли**  
кандидат биологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Боймуродов Хусниддин Тошболтаевич**  
доктор биологических наук, профессор

**Назаров Мухаммадрасул Шарапович**  
кандидат биологических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Институт зоологии**

Защита диссертации состоится 20 августа 2025 года в 09:00 на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2021.B.05.06 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; Факс: (+99873) 244-44-93; E-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована под №553). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан 8 августа 2025 г.  
(Протокол реестра рассылки №30 от 8 августа 2025 г.).



**И.И. Зокиров**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.б.н.,  
профессор

**М.М. Юнусов**

И.о. ученого секретаря Научного совета по  
присуждению ученых степеней, к.б.н.,  
доцент

**А.К. Хусанов**

Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, д.б.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Обеспечение устойчивости и сохранения биологического генофонда в различных экосистемах, а также поиск рациональных и научно обоснованных путей его использования на сегодняшний день являются одними из важнейших и актуальных задач биологических наук. С XX века влияние антропогенного фактора на биологические виды стало беспрецедентно усиливаться. Ряд исследований зафиксировал, что человечество является причиной новой волны массового вымирания видов, аналогичной предыдущим массовым вымираниям на Земле (Шестое массовое вымирание). В связи с этим в настоящее время важное научно-практическое значение приобретает выявление биологического разнообразия в природных экосистемах, в том числе в водоёмах, определение факторов, угрожающих их устойчивости, и разработка при необходимости мер по их охране.

В мировой практике акцентируется внимание на научно-исследовательских работах, направленных на фаунистический анализ замкнутых водоемов, расположенных во внутренних частях материков, в частности, рек Центральной Азии. Данные исследования посвящены сохранению автохтонных, эндемичных и уникальных таксонов рыб, анализу их распространения и распределения в зависимости от особенностей экосистем, изучению биоэкологических характеристик, а также выявлению факторов, обуславливающих морфологическую изменчивость у видов рыб, и определению необходимых условий для сохранения редких и исчезающих видов. В частности, в части бассейна Аральского моря, расположенной на территории нашей страны, зарегистрированы такие эндемичные роды рыб, как *Aspiolucius*, *Dzihunia*, *Iskandaria*, *Pseudoscaphirhynchus*. В связи с этим, исследования, направленные на изучение их современного видового состава, таксономического и охранного статуса, а также их роли в формировании местной ихтиофауны, имеют важное научно-практическое значение.

В настоящее время масштабы изучения ихтиофауны водоёмов на территории нашей республики неуклонно расширяются. В частности, всесторонне поддерживаются исследования, направленные на изучение и сохранение биологического разнообразия, а также на обогащение генофонда животного мира региона. В Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы определены такие задачи, как «обеспечение сохранения и устойчивого использования биологического разнообразия, развитие и расширение охраняемых природных территорий, замедление темпов деградации природных экосистем, восстановление редких и исчезающих видов животных и растений, а также сохранение биоразнообразия»<sup>1</sup>. Исходя из указанных задач, выявление видового разнообразия рыб реки Сох, совершенствование методики их

---

<sup>1</sup> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «Об утверждении Стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019–2028 годы».

идентификации на основе морфологических признаков, а также разработка мер по сохранению редких, эндемичных и охраняемых видов приобретают важное научно-практическое значение.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, изложенных в Законе Республики Узбекистан от 9 декабря 1992 года № 754-ХП «Об охране природы», Законе Республики Узбекистан от 26 декабря 1997 года № 545-1 «Об охране и использовании животного мира» (новая редакция), Указе Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2019 года № УП-5863 «Об утверждении Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 ноября 2018 года № 914 «О ведении государственного учета, учета объемов использования и государственного кадастра объектов животного и растительного мира», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «Об утверждении Стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы», а также в других подзаконных актах, регулирующих соответствующую сферу деятельности.

